



**TABIATNI HIMOYA QILISHDAGI MUAMMOLAR VA ULARNING
YECHIMLARI.**

Norqulova Nordona Abdurahim

*Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti yurisprudensiya
yo'nalishi 2-kurs talabasi qizi*

norqulovanordona@gmail.com

Ilmiy rahbar: Ra'nova Ziyoda

Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti o'qituvchisi

Annotatsiya *ushbu maqolada tabiatni muhofaza qilishning mohiyati, mavjud kamchiliklar hamda ularni bartaraf etish yo'llari tahlil qilinadi. Tabiatni himoya qilish davlatning balki har bir fuqaroning burchi ekanligi ta'kidlanadi. Shuningdek maqolada tabiatning himoya qilishning zamonaviy yondashuvlari va ularning yechimlari o'rganilgan. Ayniqsa, tabiatni muhofaza qilishda davlat va jamiyatlarining o'rni, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, yosh avlodni tabiatni himoya qilish ruhida tarbiyalash g'oyalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Maqolada tabiatni himoya qilish samaradorligini oshirishni strategik rejalashtirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etishning ahamiyati yoritib beriladi.*

Kalit so'zlar: *tabiat, fuqaro, burch, davlat, jamiyat nazorati, asrab avaylash, muhofaza qilish, ekalogiya, texnologiyalar.*

Abstract *This article analyzes the essence of nature protection, existing shortcomings and ways to eliminate them. It is emphasized that the protection of nature is the duty of the state, but also of every citizen. The article also examines modern approaches to nature protection and their solutions. Special attention is paid to the development of the role of the state and society in nature protection, the strengthening of state and public control, and the development of the ideas of educating the young generation in the spirit of nature protection. The article highlights the importance of strategic planning and the introduction of innovative technologies to increase the effectiveness of nature protection.*

Keywords: *nature, citizen, duty, state, social control, preservation, protection, ecology, technologies.*

Аннотация *В статье анализируется сущность охраны природы, существующие недостатки и пути их устранения. Подчеркивается, что защита природы является обязанностью государства, но и каждого гражданина. Также в статье рассматриваются современные подходы к охране природы и пути их решения. Особое внимание уделяется развитию роли государства и общества в охране природы, усилению государственного и общественного контроля, развитию идей воспитания молодого поколения в природоохранном духе. В статье подчеркивается важность стратегического планирования и внедрения инновационных технологий для повышения эффективности охраны природы.*



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Ключевые слова: *природа, гражданин, долг, государство, социальный контроль, сохранение, защита, экология, технологии.*

Tabiatni muhofaza qilish insonning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Yer yuzidagi tabiiy boyliklar inson hayoti uchun zarur bo‘lgan resurslardir. Bu tabiiy boyliklarni asrab avaylash esa fuqarolarning burchi hisoblanadi. Tabiatni himoya qilish ko‘p yillik tarixga borib taqaladi. Tabiatni muhofaza qilish deb inson faoliyati natijasida yuzaga keladigan salbiy ta’sirlarni kamaytirish, tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish va ekologik muvozanatni saqlab qolish tushuniladi.

Bugungi kunda tabiatni himoya qilishda bir qator muammolar mavjud bo‘lib bularga sanoat chiqindilarni ortib borishi orqali ularni qayta ishlash imkoniyati bo‘lmasligi, havo va suv resurslarining iflanishi orqali yetishmovchilik kelib chiqishi, qurilish va qishloq xo‘jaligi faoliyati natijasida yerlarning deqratsiyaga uchrashi ya’ni qurilish sanoati uchun o‘rmonlarning yo‘qolib ketish xavfi bo‘lishiga, yerga ko‘p kimyoviy o‘g‘itlar berish orqali tuproqning unumdorligi pasayishiga, aholi o‘rtasida tabiatga bo‘lgan madaniyatining sustlashishiga olib kelmoqda. Misol uchun O‘zbekiston Respublikasidagi Orol dengizi suvining kamayishini keltirshimiz mumkin. 80-yillarning boshiga kelib daryolarning yani Amudaryo va Sirdaryo suvlarining orol dengiziga quyilishi qarib to‘xtadi. Natijada orol dengiziga quyiladigan daryo suvlarining o‘zgarishi, uning oqimi va asosiy suv muvozanatiga o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. O‘z navbatida orol dengizining qurishiga olib keldi. 1960-yillardan buyon dengiz o‘zining 75 foizdan ko‘proq hajmi va suv maydonining yarmidan ko‘pini yo‘qotdi, ba’zi joylarda dengiz qirg‘og‘i o‘zining oldingi o‘rnidan 150 km gacha ortga chekingan va dengizning qurigan maydoni 25 000 kv km ni tashkil etadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72 va 75-sessiyalarida Orol dengizi inqirozi global ekologik muammolardan biri ekanligini ta’kidladi. Ana shunday taklif va tashabbuslar natijasi o‘laroq, 2018 yilning 27 noyabr kuni Nyu-York shahridagi BMT qarorgohida BMTning Orolbo‘yi mintaqasi uchun inson xavfsizligi bo‘yicha ko‘psheriklik Trast fondi tashkil etildi.

Mazkur fondning asosiy maqsadi Orolbo‘yidagi aholi turmush faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan tibbiy, iqtisodiy rivojlanish, ekologik, ijtimoiy himoya va boshqa muammolarni hal qilishda muvofiqlashtirilgan yondashuvni ta’minlash, O‘zbekiston hukumati, BMT agentliklari, donorlik tashkilotlarining sa’y-harakatlarini birlashtirish va mintaqa rivoji uchun texnik hamda moliyaviy resurslarni safarbar etish va Orolbo‘yi mintaqasi uchun o‘ziga xos ekologik innovatsion texnologiyalar va yondashuvlarni jalb qilishdan iboratdir. Davlatimiz rahbari Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasining Turkmanistonda 2019 yilda bo‘lib o‘tgan sammitida Orolbo‘yi hududini ekologik innovatsiya va texnologiyalar zonasi, deb e’lon qilish taklifini ilgari surdi. 2021 yil 18 may kuni BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasi yalpi majlisida O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev taklifiga binoan Orolbo‘yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



texnologiyalar hududi, deb e'lon qilish to'g'risidagi maxsus rezolyusiya bir ovozdan qabul qilindi. Orolbo'yi hududida maxsus rezolyutsiyada belgilangan vazifalarni ijrosini ta'minlash bo'yicha jami 2 trillion 120 milliard so'mdan ortiq, 22 million AQSH dollari va 6 million yevro mablag'lar sarflanishi mo'ljallangan 71 banddan iborat chora-tadbirlar hamda 65 ta ustuvor innovatsion loyihalar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, 2018 yilning dekabr oyidan hozirgi kunga qadar Orolning qurigan tubida qariyb 1,8 mln gektardan ortiq maydonga saksovul, cherkes va boshqa sho'rga va qurg'oqchilikka chidamli o'simlik urug'lari sepildi va ko'chatlari ekildi. Bu tashabbus ekologik toza texnologiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirishga xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun sharoit yaratish, «yashil» iqtisodiyot, ekologik toza, energiya va suv tejaydigan texnologiyalar tamoyillarini kompleks tatbiq etish, cho'llanish va ekologik migratsiyaning davom etishiga barham berish, ekoturizmni rivojlantirish va boshqa chora-tadbirlarni amalga oshirish imkonini berdi.

Ushbu maxsus rezolyusiyada belgilangan ustuvor vazifalarning ijrosini ta'minlash, Orolbo'yi mintaqasini ekologik va gumanitar inqiroz yuz berayotgan hududdan ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududiga aylantirish maqsadida davlatimiz rahbarining 2021 yil 29 iyulda «Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2021 yil 18 maydagi «Orolbo'yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi deb e'lon qilish to'g'risida»gi maxsus rezolyusiyasini amalga oshirish choralari to'g'risida»gi qarori qabul qilindi.

So'nggi yillarda sohaga oid qabul qilingan “Ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish to'g'risida”gi, “Organik mahsulotlar to'g'risida”gi, “Gidrometeorologiya faoliyati to'g'risida”gi, “Ekologik audit to'g'risida”gi, “O'rmon to'g'risida”gi, “Yaylovlar to'g'risida”gi, “Qayta tiklanuvchi energiya manbalari to'g'risida”gi, “Atom energiyasidan tinchlik maqsadlarida foydalanish to'g'risida”gi, “Ov qilish va ovchilik xo'jaliklari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunlari esa ekologik barqarorlikni ta'minlash, mintaqa aholisi uchun munosib yashash sharoitlarini yaratishga xizmat qilayapti. 2030 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining Atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi, O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030 yillarga mo'ljallangan konsepsiyasi, 2019-2028 yillar davrida O'zbekiston Respublikasida qattiq maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish strategiyasi, 2019-2030 yillar davrida O'zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o'tish strategiyasi, O'zbekiston Respublikasida o'rmon xo'jaligi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi ham sohani rivojlantirishda asosiy dasturilamal bo'lyapti. Ushbu konsepsiya va strategiyalar doirasida hamda iqlim o'zgarishlarini oldini olish va unga moslashish bo'yicha so'nggi yillarda mamlakatimizda salmoqli ishlar amalga oshirildi. 2025-yil mamlakatimizda “Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot yili” deb e'lon qilinishi nafaqat bugungi baki kelajak yoshlarni manfaatini ko'zlab tabiatni muhofaza qilishga qaratilgan tashabbuslardan biri bo'ldi. Bu tashabbus doirasida bir nechta loyihalar ishga tushirildi, misol uchun oliy ta'lim o'quv yurtlarida



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



“Yashil makom,, loyihasi bo’lib, loyihada “bir talabaga bir nihol” shiori ostida bo’lib o’tdi . Bundan ko’zlangan maqsad tabiatga bo’lgan qiziqishni uyg’otish, yoshlarni tabiatni sevishga , uni asrab avaylashga o’z hissalarini qo’shishlari va undan oqilona foydalanishga va tabiiy muammolarni yechimini topish uchun izlanishlar olib borildi. Bu loyihada faqat talabalar emas balki jamiyat organlari , mansabdor shaxslar ham faol ishtirok etishdi. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti va chet eldan kelgan mansabdor shaxslar bilan bigalikda nihollar ekishdi bu ham ona tabiatga bo’lgan hurmatdan dalolat beradi. Prezident tashabbusi bilan mahallalarda “Tozalik va ozodalik oyliigi ,, o’tkazilib kelinmoqda. Bu loyiha doirasida har bir mahallada bir oy davomida jamoaviy tozalash va obodonlashtirish ishlari olib borish topshirildi. Loyiha asosida bir qator chora tadbirlar amalga oshilidi va mahalla faollari tomanidan tabiatni asrab avaylash , yer ustki va yer ostki boyliklardan oqilona foydalanish ,uni isrof qilmaslik, yosh avlodni tabiatni asrashga avaylashga o’z hissalarini qo’shishlari kerakligi yosh avlodga tushuntirildi. Hozirgi kunda tabiatni muhofaza qilishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanilmoqda. Bularga :

- Chiqindisiz ishlab chiqarish texnologiyalar (yoki chiqindini qayta ishlash texnologiyalari)

- Qayta tiklanuvchi energiya manbalari (quyosh , shamol,bioenergiya)

- Suvni tejevchi tizimlar (tomchilab sug’orish texnologiyasi)

Bu texnologiyalardan foydalanish orqali tabiiy resurslarni kelajak avlodga yetkazish imkoniyatiga bo’lgan ishonch yanada oshmoqda. Shuningdek, O’zbekistonda “Yashil makon” loyihasi doirasida yoshlar va talabalarning ekologik ongini oshirishga qaratilgan tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Talabalar tomonidan ko’chat ekish aksiyalari, mahallalarda tozalik oyliklari, chiqindisiz ishlab chiqarish texnologiyalarini tatbiq etish ishlari olib borilmoqda. Davlat qonunlarida ham tabiatni asrashga oid aniq majburiyatlar belgilangan.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda ham fuqarolarning ekologik huquqlari o’z ifodasini topdi. Xususan, Bosh qomusimizning 49-moddasida har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to’g’risidagi ishonchli axborotga ega bo’lish huquqiga egaligi, davlat fuqarolarning ekologik huquqlarini ta’minlash va atrof-muhitga zararli ta’sir ko’rsatilishiga yo’l qo’ymaslik maqsadida shaharsozlik faoliyati sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratishi, shaharsozlik hujjatlarining loyihalari qonunda belgilangan tartibda jamoatchilik muhokamasidan o’tkazilishi belgilab qo’yildi.Ushbu moddadan davlat barqaror rivojlanish prinsipiga muvofiq, atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo’yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishi, davlat Orolbo’yi mintaqasining ekologik tizimini muhofaza qilish hamda tiklash, mintaqani ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rivojlantirish yuzasidan choralar ko’rishi ham o’rin olgan. Bunday tashqari, 61–62-moddalarida fuqarolarning tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo’lish majburiyati qayd etilgan.Tabiatni muhofaza qilishda davlat siyosati bilan bir qatorda fuqarolarning ekologiyaga, atrof



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



muhitga bo‘lgan madaniyatini oshirish muhim o‘rin tutadi. Har bir fuqaro tabiatni hurmat qilib asrab avaylasa , ekologik muammolarni kamaytirish mumkin bo‘ladi. Inovatsiyon texnologiyalar , davlatlar bilan xalqaro hamkorlik va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish orqali O‘zbekiston ekologiyasini himoya qilishimiz mumkin. Buni amalga oshirish uchun barchamiz birgalikda harakat qilishimiz lozim.

Xulosa tabiat insoniyat hayotining asosini tashkil etadi. Uni asrab avaylash har bir insonning o‘z qo‘lida bo‘lib, undan oqilona foydalanishimiz kerak. Biz tabiatga qancha mehr berib ko‘r qorachig‘imizdek asrasak ,ertaga yosh avlodlarimiz ham xuddi bizdek tabiatni asrab avaylaydi. Bizning bir ekkan niholimiz kelajakda ming bo‘ladi, albatta. Shuning uchun ham yoshlarimizga tabiatni sevishga , himoya qilishga , uni asrab avaylashga yoshligidan o‘rgatib borishimiz lozim. Biz yosh avlodni ekologik madaniyatini kuchaytirish orqali ekologik muammolarni oldini olish imkoniyati bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Atrof muhitni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonuni. – 2013 yil 9 dekabr, O‘RQ–362-son.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 29 iyuldagi “Orolbo‘yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi deb e‘lon qilish to‘g‘risida”gi qarori.
4. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
5. BMT Bosh Assambleyasining 2021 yil 18 maydagi maxsus rezolyusiyasi.
6. Karimov I.A. Tabiatga mehr – kelajakka sadoqat. – Toshkent: O‘zbekiston, 2005.
7. Jo‘rayev N., Ismoilov A. Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
8. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi: <https://eco.gov.uz>
9. Qahhorov Sh. Orol muammosi va uning ekologik oqibatlarini. – Nukus: Qoraqalpoq universiteti nashriyoti, 2020.
10. Yusupova N. Yashil iqtisodiyot va ekologik barqaror rivojlanish. – Toshkent: Iqtisodiyot 2022

